



QO‘CHQOR NORQOBILNING “O‘N SAKKIZGA KIRMAGAN MEN BOR” ASARI BADIYYATI

Jamoldinova Risola Qobiljon qizi

Andijon davlat universiteti

4-bosqich talabasi

Annotasiya:

Ushbu maqolada adib Qo‘chqor Norqobilning “O‘n sakkizga kirmagan men bor” asarida urush mavzusi va inson ruhiyati qanday badiiy talqin etilgani tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning ma‘naviy dunyosi, urushning ularning ruhiyatiga ko‘rsatgan ta‘siri, qo‘rquv va vijdon azobi kabi ichki kechinmalar tasviri orqali yozuvchi insonning ichki olamidagi ziddiyatlarni chuqur ochib beradi. Shuningdek, maqolada adibning badiiy uslubi, zamonaviy o‘zbek adabiyotida urush mavzusini yoritishdagi o‘rni hamda asarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: urush, afg‘on urushi, muhabbat, oqibat, sadoqat.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini murakkab hayot sinovlari, ichki kurashlar va iztiroblar girdobida tasvirlashga bo‘lgan intilish yanada kuchaygani kuzatiladi. Adabiyot endilikda voqealarni faqat tashqi ko‘rinish bilangina emas, balki inson ongining ichki qatlamlari, ruhiy holatlari, kechinma va iztiroblarini ochish orqali yoritishni maqsad qiladi. Chunki inson shaxsining asl mohiyati, xarakteri va ruhiy qiyofasi aynan ana shunday sinov va mashaqqatlar orasida shakllanadi, uning zuvalasi pishadi, ma‘naviy olami sinovdan o‘tadi.

Bu holat bugungi o‘zbek adabiyotining ko‘plab iste‘dodli namoyandalari, xususan, yozuvchi Qo‘chqor Norqobil ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning asarlarida inson kechinmalari, vijdon va burch o‘rtasidagi ziddiyatlar, ruhiy larzalar,



hayotiy tanlovlarning og‘ir oqibatlari chuqur tahlil etiladi. Norqobil o‘z asarlarida hayotning qattiq, ammo chin haqiqatlarini ko‘rsatadi u insonni ideal holatda emas, balki hayot sinovlari orasida sinayotgan, izlayotgan, adashayotgan, ammo o‘zligini yo‘qotmaslikka urinayotgan mavjudot sifatida talqin etadi.

Badiiy asarning shakli va mazmuni, tabiiyki, uning mavzusi va g‘oyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu faqat voqea-hodisalar yoki qahramonlarning tashqi hayoti emas, balki muallifning dunyoqarashi, u yoritayotgan muammolar, jamiyat va inson haqidagi fikrlar majmuasidir. Aynan mavzu va g‘oya asarning ta’sirchanligini, badiiy kuchini belgilovchi asosiy omillardir. Shu nuqtai nazardan urush mavzusi o‘zbek adabiyotida doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki urush insoniyatni, inson ruhiyatini, vijdonini, hayot va o‘lim o‘rtasidagi chiziqni sinovdan o‘tkazadi.

Qo‘chqor Norqobilning “O‘n sakkizga kirmagan men bor” qissasi ana shunday murakkab mavzuni o‘ziga xos tarzda yoritgan asardir. Bu qissa I yoki II jahon urushlari haqida emas Afg‘on urushi singari adolatsiz, befoyda qon to‘kish sahnasida ishtirok etgan hali hayotning boshlanishida turgan yosh yigitlarning fojiasini ifodalaydi. Asarda o‘spirin askarlarning ruhiy iztiroblari, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurash, qo‘rquv va umid orasidagi nozik chiziq badiiy soddalik va ichki samimiyat bilan tasvirlanadi.

Yozuvchi voqealarni ortiqcha pafos, soxta qahramonlik yoki siyosiy da’volarsiz, hayotni qanday bo‘lsa, shundayligicha beradi. Shu sababdan o‘quvchi asarni o‘qir ekan, o‘zini urush o‘rtasidagi oddiy askardek his qiladi. “*Parol to‘rt! O‘zingnikiman...*” kabi satrlar shunchaki harbiy buyruq emas bu inson qalbining ichki qichqirig‘i, hayot uchun yashash istagining so‘nggi ifodasidir.

Norqobilning asaridagi asosiy yondashuv urushni qahramonlik emas, balki fojia sifatida ko‘rsatishdir. Yozuvchi insonni o‘ldirish yoki himoya qilish jarayonidagi “jasorat”ni emas, balki uning yuragida kechayotgan ichki iztiroblarni tasvirlaydi. “Dunyoda odam bolasiday yovuz maxluq yo‘q... baribir o‘z yuragidan mag‘lub bo‘ladi,” degan satrlar muallifning butun asariga singgan falsafiy mohiyatni



ifodalaydi. Urush insonni yovuzlikka o'rgatadi, ammo oxir-oqibat uni o'z vijdoni oldida yengilgan holga soladi.

Asarda insonning ruhiy iztirobi, ichki qarama-qarshiliklari, hayotga bo'lgan ishonchini yo'qotish holatlari badiiy realizm asosida ifodalangan. Urush insonni faqat jismonan emas, balki ma'nan ham majruh qiladi. Odamlar o'z kechinmalarini yashirishga, hayotiy og'riqlarini ichida yutishga majbur bo'ladi. Botiniy tuyg'ular o'rnini karaxtlik, befarqlik va jimlik egallaydi. Yozuvchi aynan mana shu ruhiy karaxtlikni tasvirlash orqali urushning chin mohiyatini ochib beradi.

“Inson qurol ushlasa, yovuzlik tan beradi,” degan g'oya asar bo'ylab o'tuvchi ichki falsafiy chiziqdir. Urush insonni hayvondan ham battarroq holatga tushiradi: u vijdonini, mehrini, insoniyligini yo'qotadi. Shu bois, yozuvchi uchun urush – bu tashqi jang emas, balki insonning o'z yuragi bilan bo'lgan ichki kurashidir.

“O'n sakkizga kirmagan men bor” qissasi o'zbek adabiyotida urush mavzusining yangi, psixologik tahlilga asoslangan bosqichini boshlab bergan asarlardan biridir. Qo'chqor Norqobil bu qissa orqali urushni nafaqat tarixiy fakt sifatida, balki **insoniy ong va ruhiyatni o'zgartiruvchi ijtimoiy-falsafiy jarayon** sifatida yoritadi. Shu jihatdan, asar zamonaviy o'zbek adabiyotida psixologik tahlil, badiiy realizm va ma'naviy mushohada uyg'unligining yorqin namunasi sanaladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qo'chqor Norqobilning “O'n sakkizga kirmagan men bor” qissasi inson ruhiyatini urush shafqatsizligi orqali ochib bergan chuqur falsafiy asardir. Unda yozuvchi o'n sakkiz yoshli o'spirinning hayot sinovlari orasida pishib, yetilganini, ammo urush tufayli o'z bolaligini, orzularini yo'qotganini badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Asarda insoniylik va yovuzlik, hayot va o'lim, vijdon va qo'rquv o'rtasidagi abadiy ziddiyatlar ifoda topgan.



Qissa o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi: urush hech qachon g‘alaba emas, u insoniyatning eng og‘ir mag‘lubiyatidir. Shu bois yozuvchi nafaqat urush manzaralarini, balki inson qalbidagi vayronalikni ko‘rsatadi. “O‘n sakkizga kirmagan men bor” urushning beayov haqiqatlari, yosh umrlarning iztiroblari va insoniylikning abadiy qadri haqida yozilgan eng samimiy, ta’sirchan va falsafiy qissalardan biridir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Norqobilov. “18 ga kirmagan men bor” qissasi. Toshkent-2024.
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi.
3. S.Saparboyeva. Qo‘chqor Norqobil asarlarida urush mavzusi. Maqola. Research focus.3.2023.